



THE ANALYSIS OF ABSTRACT NOUNS IN THE “DEVONU LUG’OTIT TURK” BY MAHMUD KASHGARIY

Ismatova Vasila Shodmanovna

Alisher Navoi University of Uzbek Language and Literature 1st year

Master's degree in Linguistics (Uzbek language)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5003667>

ARTICLE INFO

Received: 05th June 2021

Accepted: 10th June 2021

Online: 15th June 2021

KEY WORDS

Turkish peoples, history, ethnography, grammatic, grammatic, languages, tongue, phonetics, morphology.

ABSTRACT

This article is an idea of the semantic classification of absentious horses, expressed, emergent horses concerning the desires, in the Devonu lughotit turk, who are able to compete with great livetics and grammar. Comments are given.

MAHMUD QOSHG’ARIYNING “DEVONU LUG’OTIT TURK” ASARIDA

QO’LLANILGAN MAVHUM OTLAR

Ismatova Vasila Shodmanovna

Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvistika (o‘zbek tili) 1-kurs magistranti

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-iyun 2021

Ma’qullandi: 10-iyun 2021

Chop etildi: 15-iyun 2021

KALIT SO‘ZLAR

Turkiy xalqlar, tarix, etnografiya, semantik, grammatik, til me’yorlari, tilning rivojlanishi, fonetika, morfologiya,

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jahonning buyuk lug’at va grammatikalari bilan bellasha oladigan Mahmud Qoshg’ariyning “Devonu lug’otit turk” asari va asarda qo’llanilgan mavhum otlarning semantik tasnifi, holat bildiruvchi, tafakkurga oid, orzu-umidga oid mavhum otlar xususida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning – “o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi”¹ degan bebaho so‘zlari tilning jamiyatdagi rolini yorqin aks ettiradi. Zotan, ijtimoiy hayotning barcha jabhalaridagi tarixiy taraqqiyotni tilsiz tasavvur qilish mumkin emas.

O‘zbek tilshunosligi bugungi kunga qadar bir qancha davriy bosqichlarni bosib o‘tdi. Ushbu vaqt oralig‘ida o‘zbek tilining anchayin muammoli, yechilmagan jihatlari tom ma’noda o‘rganilib, fanga ma’lum qilindi. Bu yo‘lda tilshunos olimlar barakali faoliyat olib borishmoqdi. Ularning mehnati samarasi o‘laroq o‘zbek tilining leksik, grammatik, morfologik, fonetik kabi



sathlarida nazariy manbalar, ilmiy asoslar yaratilmoqdi. Ona tilimizning o'ziga xos serqirra jihatlari namoyon bo'lyapti. Ammo yutuqlar bilan bir qatorda hali o'rganilishi lozim bo'lgan muammolarimiz yetarlichani tashkil qiladi.

Ushbu maqola o'zbek tilining tub negizi, ya'ni Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari va unda keltirilgan mavhum otlari atroflicha tadqiq etiladi. Bugungi kunda iste'molda bo'lgan so'zlar qomusiy olim davri (XI asr) da qanday nomlangan va hozirga qadar qay tarzda yetib kelganligi mushohada qilinib, o'xshash va tafovutlar haqida ma'lumotlar berildi. Va, albatta, bir til oilasiga birlashgan millatlar tillari ham o'rganilib, ulardan misollar keltirildi. Bu esa mazkur mavhum otlarining qadimiy ildizlarini aniqlash, ularning manbalari va evolyutsiyasi bosqichlarini tahlil qilish, shuningdek, bu terminning tilshunoslikdagi tutgan o'rni va ahamiyatini ilmiy tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi Mahmud Qoshg'ariy XI asrda yashagan birinchi turkshunos, tilshunos va leksikograf, etnograf va folklorshunos, tarixchi va geografdir. Tilimizdagi qadimiy so'zlar tarixi haqida keng va ishonchli ma'lumot beradigan Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari jahonning "Ritorika", "Poetika", "Alqomus", "Mitridat", "Qomus" kabi buyuk lug'at va grammatikaga doir manbalari bilan bellasha oladi.

"Devonu lug'otit-turk" ("Turkiy so'zlar devoni") — Mahmud Qoshg'ariyning turkiy tillar haqidagi qomusiy asari (1071—72). Bu asarda XI asrning 2-yarmida Markaziy Osiyoda va G'arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug' va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, bu hududning geografiyasi, metrologiyasi va

astronomiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirilgan. «Devonu lug'otit-turk»ning qo'lyozmasi 1914 yil Turkiyaning Diyorbakr shahridan topilgan. 319 sahifali bu qo'lyozma Istanbulda saqlanadi. Bu nusxa «Devonu lug'otit-turk» yozilganidan salkam 200 yil keyin, ya'ni Mahmud Qoshg'ariyning o'z qo'li bilan yozilgan nusxadan 1266- yilda kotib Muhammad ibn Abu Bakr ibn Fotihal-Soviy al-Damashqiy tomonidan ko'chirilgan.

«Devonu lug'otit-turk» arab tilida yozilgan bo'lib, 8 mingdan ortiq turkiy so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish maqsadida arabcha harakatlar (harflardagi ost-ust ishoralar)dan foydalanilgan. Bunda, albatta, muallif ancha qiyinchilikka uchragan, chunki arabcha harf va alif, vov, yo) ishoralari bilan turkiy tovushlarni berib bo'lmas edi. Turkiy tildagi cho'ziq va qisqa unlilar, yumshoq va qattiq tovushlar uchun Mahmud Qoshg'ariy maxsus belgilar (harakatlar)ni qo'llaydi yoki so'z boshidagi cho'ziqlikni ikki alif bilan ko'rsatadi yoki ikki xil talaffuz qilinadigan so'zlarga 2 xil ishora qo'yadi: azuqluq, eritmak so'zlaridagi **Z** va **R** harflari ustiga ham kasra, ham damma ishorasini qo'ygan, demak, bu so'zlar o'sha davrda ikki xil talaffuz etilgan: azmqluq — azuqluq, eritmak — erutmak kabi. Arabcha harf bilan ko'rsatish mumkin bo'lmagan turkiy talaffuzni «Devonu lug'otit-turk»da izohlab, ta'riflab o'tgan. «Devonu lug'otit-turk»da, avvalo, otlar, so'ng fe'llar izohlanadi. So'zlar tartibi ularning tarkibidagi harflarning orta borishiga (2 harfdan 7 harfgacha) qarab amalga oshirilgan.

Asarda so'zlarning lug'aviy ma'nosi izohlangan va so'zlarning yasalishiga doir ma'lumotlar berib borilgan. Shuning uchun bu asarda so'zlar izohi zamirida o'sha davr



tili fonetikasi, morfologiyasi va leksikasiga doir mukammal qoidalar ham yuzaga kelgan.Devonni mundarijasiga ko'ra ikki asosiy bo'limga ajratish mumkin:

1.Muqaddima. 2.Lug'at qismi.

Muqaddimada muallif turk tilining ahamiyati va xususiyatlari,o'z oldiga qo'ygan maqsadi,asarining tuzilish tartibi,qo'llanilgan yozuv, fe'llardan yasalgan ismlar, so'zlarning tuzilishi va o'zgarishi,zikr qilinmagan sifatlar, turk tabaqalari va qabilalari haqida qisqacha izoh beradi.

«Devonu lug'otit-turk» asarida qo'llanilgan 8000 dan ortiq so'zlarning 150 ga yaqinini mavhum otlar tashkil etadi. Bu otlarni holat bildiruvchi, tafakkurga oid,orzu-umidga oid mavhum otlar va boshqa turdagi mavhum otlarga ajratishimiz mumkin. Masalan, **الز** - **а:з** "yaxshilik" (1- jild, 108-sahifa 10-qator), **الكو** - **элкү** "ahd, va'da" (1- jild, 149-sahifa 21-qator), **تۇتۇف** - **тутуф** "garov"

(1- jild, 354-sahifa 4-qator),mehnat,qiyinchilik; **اينل** - **эли** "kelishuv,bitishuv" (1- jild, 83-sahifa 11-qator); **اندگی** - **эндкәј** "qasam"(1- jild, 427-sahifa, 14-qator), **آردم** - **эрдәм** "odob-axloq" (1- jild, 131-sahifa 19-qator), **بذرم** - **базрам** "shodlik" (1-jild,447-sahifa, 7-qator), **بۇلغاش** - **булғаш** "vahima" (1- jild, 428-sahifa 7-qator), **بۇلغاق** - **булғақ** "fitna" (1- jild, 434-sahifa, 10-qator), **ار** - **иппа** "izza, uyalish, uyat" (1- jild, 74-sahifa, 23-qator), **اسكلك** - **iciklik** " issiqlik, harorat" (1- jild, 168-sahifa 6-qator), **اسكلك** - **iciklik** "sevgi, muhabbat o'ti" (1- jild, 168-sahifa 7-qator), **جالوى** - **jalwi** "sehr" (3-jild, 40-

sahifa 11-qator), **ياك** - **jәk** "shayton" (3-jild, 175-sahifa 8-qator), **يول** - **jol** "usul" (1-jild, 320-sahifa 4-qator), **كزك** - **kәzik** "jur'at,jasorat" (1-jild, 372-sahifa 5-qator), **كئن** - **кәтән** "mehnat, qiyinchilik" (1-jild, 384-sahifa 1-qator), **كۈنل** - **көнүл** "ko'ngul,yurak" (3-jild, 377-sahifa 13-qator), **میان** - **myjan** "yaxshilik, yaxshi ishlar" (3-jild, 188-sahifa 1-qator), **اكنج** - **өкунч** "o'kunish, pushaymonlik" (1-jild, 152-sahifa 14-qator), **ابكا** - **өпка** "g'azab" (1-jild, 148-sahifa 26-qator), **انتلك** - **örlyk** "o'git,nasihati" (1-jild, 127-sahifa 25-qator), **اوج** - **өч** " intiqom, o'ch,qasos" (1-jild, 79-sahifa 5-qator), **اچت** - **өчүт** "o'ch,qasos" (1-jild, 84-sahifa 10-qator)...

Asarda aynan bir so'zning berilishiga to'xtalaylik.Masalan, **تۇتۇف** so'zining 2 xil ma'nosi izohlangan. 1. Garov. 2.Jindan bo'lgan kasallik.

Birinchi, ya'ni *garov* ma'nosini anglatuvchi **تۇتۇف** so'zi yozma adabiyotlarda ko'p uchraydi.Navoiyda *tabug*, *tabuqchi*, *tabunmoq*, *tabing'u* formalarida uchraydi:

Shamshod qomatinga bo'lib banda bog'da,

Aylab tabug,hamisha turib bir oyog'da.

Shayx Sulaymon lug'atida bu so'z **ثوناق** - **тутақ** shaklida berilgan.

Asarda ikkinchi ma'nosi "*jindan bo'lgan kasallik*" mazmunini anglatuvchi **تۇتۇف** so'ziga shunday misol keltirib o'tilgan:

أناك تئغى باز - Uning jin kasali bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
2. Аджид М. Европа, тюркии, Великая степь. – М., 1998.



3. Алишер Навоий. Хазойинул-маоний. Т.I, 1963.
4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Т.: Фан, 1985. III.
5. Болтабоев Х., Дадабоев Х.. Девону луғотит турк, I,II,III жилдлар. Тошкент: 2006-2008.
6. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I – III. Т.: Фан, 1960-1963.
7. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. III. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. – Т.: ЎзФА нашриёти. 1963.